

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI**




**TARJIMASHUNOSLIK  
FANINING O'QUV DASTURI**

- Bilim sohasi:** 200 000 – San'at va gumanitar fanlar
- Ta'lim sohasi:** 230 000 – Tillar
- Ta'lim yo'nalishi:** 60230200 – Tarjima nazariyasi va amaliyoti

Toshkent - 2025

Sharq xalqlari tillari va adabiyoti  
instituti direktori: \_\_\_\_\_2025

  
\_\_\_\_\_  
(imzo)


X.V. Mirzaxmedova

Tarjimashunoslik, tilshunoslik va  
xalqaro jurnalistika oliy  
maktabi boshlig'i: \_\_\_\_\_2025

  
\_\_\_\_\_  
(imzo)

S.T. Mustafayeva

ARM boshlig'i: \_\_\_\_\_2025

  
\_\_\_\_\_  
(imzo)

M.M. Yuldasheva

<b>Fan/modul kodi</b> TARJ12-312	<b>O'quv yili</b> 2025-2026 2026-2027	<b>Semestr</b> 2,3	<b>YeCTS - Kreditlar</b> 4/8	
<b>Fan/modul turi</b> Majburiy	<b>Ta'lim tili</b> O'zbek		<b>Haftadagi dars soatlari</b> 4/8	
<b>1.</b>	<b>Fanning nomi</b>	<b>Auditoriya mashg'ulotlari (soat)</b>	<b>Mustaqil ta'lim (soat)</b>	<b>Jami yuklama (soat)</b>
	<b>Tarjimashunoslik</b>	144	216	360

<b>2.</b>	<p><b>I. Fanning mazmuni:</b></p> <p><b>Fanning maqsadi:</b> tilshunoslik sohasining predmeti, vazifalarini yoritish, fan doirasida o'rganiladigan asosiy masalalarning mazmun-mundarijasini ichki va tashqi integratsiya asosida tahlil qilish, tilning ijtimoiy tabiati, shakllanish jarayoni, taraqqiyoti, til va jamiyat, til va tafakkur munosabati, til birliklari, nutq birliklari, til birliklari o'rtasidagi munosabatlar, til sathlari, dunyo tillari tavsifi, lingvistika turlari: pragmalingvistika, psixolingvistika, tilshunoslik maktablari, lingvistik tahlil metodlari, lisoniy universalialar, metatil va til strukturasi haqida ma'lumot berishdan iborat.</p> <p>Fanning vazifasi - fanning vujudga kelishi va rivojlanishi bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish va mustahkamlash, talabalarda umumiy tilshunoslik bo'yicha asosiy bilim va ko'nikmalarni hosil qilish, tilning ijtimoiy tabiati, ijtimoiy vazifalari, til sathlari, tilshunoslik fani bo'limlari, tilshunoslikda faol qo'llaniladigan terminlar mohiyatini anglash, tilshunoslikning nazariy masalalariga ilmiy hamda integrativ yondashuvni shakllantirish, tilshunoslik fanining tarixi, tilshunoslik maktablari va yo'nalishlari, tilshunoslik metodlari, lisoniy universalialar, lingvistik ta'minotlar va til strukturasi haqida bilim berish vazifalari nazarda tutiladi.</p> <p><b>Xorij tajribasiga muvofiqligi:</b></p> <p>Mazkur fan dasturi xalqaro tan olingan reytinglarda birinchi top 300 talik ro'yxatga kiruvchi New York University (AWRU 31) xorijiy tajribasini inobatga olgan holda takomillashtirildi.</p> <p><a href="https://bulletins.nyu.edu/undergraduate/liberal-studies/programs/translation-studies-minor/translation-studies-minor.pdf?utm_source=chatgpt.com">https://bulletins.nyu.edu/undergraduate/liberal-studies/programs/translation-studies-minor/translation-studies-minor.pdf?utm_source=chatgpt.com</a></p>
	<p><b>2-Semestr.</b></p> <p><b>II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)</b></p> <p><b>II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:</b></p> <p><b>“Tarjimashunoslik” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari</b></p> <p><b>1-Mavzu. Kirish. Fanining predmeti, maqsadi va vazifalari</b></p> <p>“Tarjimashunoslik” fanining predmeti, maqsadi va vazifalari.</p> <p>Tarjimashunoslikning asosiy nazariy masalalari. Bu masalalarni guruhlashtirish</p>

va tasnif qilish. Tarjima va tarjimashunoslik haqida turlicha qarashlar. Tarjimaning nazariy masalalari bilan shug'ullangan tarjimashunoslar.

Tarjima tarixiga sayohat. Tarjima haqidagi fikrlar rivoji. Ilk tarjimalar va tarjimolar. Tarjima prinsiplari va usullari. Tarjima va tarjimon so'zlari etimologiyasi. Abu Rayhon Beruniy va tarjima masalalari.

### **2-mavzu. Tarjimashunoslik fanlarining tasnifi**

Tarjimashunoslik fanining tarkibiy qismlari: tarjima tarixi, tarjima nazariyasi, tarjima tanqidi. Ularning o'rganish sohaları. Tarjimaning sohalar, janrlar, tillar va davrlar bo'yicha bo'linishi. Tarjimashunoslikning yangi yo'nalishlari. Sinxron tarjima. Avtomatik tarjima.

Tarjima haqidagi ilk fikrlar. Dastlab tarjimalar. O'zbek tarjimolari va tarjimashunoslari. Tarjimashunoslikning fan sifatida qaror topishi va o'qitilishi. Maqolalar, ma'ruzalar, risola va monografiyalar. G'aybullar Salomov – o'zbek tarjimashunosligining asoschisi.

### **3-mavzu. Tarjima tarixi mustaqil fan sifatida**

O'zbekistonda tarjima tarixining faqat sifatida o'qitilishi. Fanning o'rganish ob'ekti va manbalar. Tarjima tarixining taraqqiyot bosqichlari. O'tmishda tarjimachilikning asosiy xususiyatlari va yo'nalishlari. Tarjima tarixining o'rganilishi. Adabiy alova va badiiy tarjima. Arab, fors va rus tilidan tarjimalar tarixiga bir nazar. Tarjima maktabi tushunchasi. Tarjima maktablarining vujudga kelishi. Bu maktablarning asoschilari, homiyar va mashhur namoyandalari. Antik davr tarjimachiligi. Rimda amalga oshirilgan tarjimalar. Bag'dod tarjima maktabi. "Ixvon us-safu" tashkilotida tarjimachilik. Bag'dod va Toledo tarjima maktablari. Xiva tarjima maktabi.

### **4-mavzu. Tarjima va uning turlari**

Tarjima jarayonini nazariy va amaliy bosqichlarda tahlil qilish. Tarjima faoliyatida tarjimonning ijodiy va ijrochi sifatidagi o'rnini yoritish. Asliyat va tarjima matni o'rtasida yuzaga keladigan semantik, uslubiy va madaniy tafovutlarni aniqlash. Tarjimonning qaror qabul qilish jarayonida sodiqlik va erkinlik o'rtasidagi tanlovlarini baholash. Badiiy, ilmiy va og'zaki tarjimada "ijro" elementlarining o'ziga xosligini ko'rsatish. Tarjima jarayonini sahna san'ati, ijodiy ijro va til amaliyoti bilan qiyoslab o'rganish. Amaliy misollar orqali tarjimaning "amalga oshirish" jarayonidagi strategiya va usullarni tahlil qilish.

### **5-mavzu. Tarjima tanqidining o'rganish sohaları**

Tarjima tanqidi fan sifatida. Tarjima tanqidining vazifalari. Adabiy tanqid va tarjima tanqidi. Tanqid so'zining etimologiyasi. Taniqli tarjima tanqidchilari. "Jahon adabiyoti" jurnali faoliyati haqida. Tarjima tanqidining hozirgi ahvoli. Tarjima ishini tashkil qilish haqida. Tarjima tanqidchisi oldiga qo'yiladigan talablar.

### **6-mavzu. Tarjimaning til muammolari**

Xalqlar va tillar. Jahon tillari. Tarjimaning lisoniy va g'ayrilisoniy muammolari. Grammatika va tarjima. Erkalash va kichraytirish qo'shimchalari tarjimasini. Soxta ekvivalent va tarjima. Tarjimada jins kategoriyasi.

### **7-mavzu. Tarjimada milliy xususiyatlarni aks ettirish**

Milliylik haqida umumiy tushuncha. Milliylik va tarjima muammolari. Milliy xos so'zlar tarjimasini qiyinchiliklari. Milliy kolorit. Milliy koloritning tarkibiy qismlari. Milliy xos so'zlar. Realiz. Milliylik va adabiyot. Muammolar muammosi. Milliylik va tarjima. Milliy xos so'zlarni tarjima qilishning uch usuli. Transliteratsiya. Analogiya. Yangi so'z va so'z birligini yaratish.

### **8-mavzu. Asl matnga sodiqlik va muammosini tahlil qilish**

Adabiy tarjimaning o'ziga xos xususiyatlarini nazariy asosda tushuntirish. "Traduttore, traditore" (tarjimon xoin) tamoyilini ilmiy kontekstda yoritish. Roman Yakobson, Valter Benjamin, Antoine Berman va boshqa tarjima nazariyotchilarining qarashlarini o'rganish. Aslmatnga sodiqlik va ijodiy erkinlik o'rtasidagi dialektik muvozanatni tahlil qilish. Amaliy misollar orqali (o'zbek va jahon adabiyotidan) badiiy tarjimaning "sodiqlik/xiyonat" masalasini ko'rsatish.

### **9-mavzu. Frazeologiya va tarjima**

Frazeologiya haqida tushuncha. Frazeologizmlar tarjimasini xususiyatlari. Frazeologizmlar tarjimasining uch usuli. 1) asl nusxadagi frazeologizmga tarjima tilidan teng qiymatli ekvivalent qidirib topish; 2) asar o'girilayotgan tildan monand muqobil variant topib qo'yish; 3) frazeologizmi aynan, so'zma-so'z tarjima qilish. Frazeologiya va milliylik. Kalka usuli. Muqobil variantlar

### **10-mavzu. Uzoq va yaqin tillardan tarjima**

Tarjimada uzoq va yaqin tillar tushunchasi. Uzoq tillardan tarjima muammolari. Yaqin tillardan tarjima muammolari. Soxta ekvivalent va tarjima. Paronimlar. Tuzilma ekvivalentlar. "Aldoqchi so'zlar" bilan bahs.

### **11-mavzu. Migratsiya, til va identitet**

Migratsiya jarayonlarining shaxs va jamiyat hayotidagi ijtimoiy-madaniy ta'sirini tahlil qilish. Migranlarning til o'zlashtirish jarayonida duch keladigan qiyinchilik va imkoniyatlarini o'rganish. Til va identitet o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni ilmiy asosda tushuntirish. Ikki tillilik (bilingvizm) va ko'p tillilik (multilingvizm)ning shaxsiy hamda milliy identitetga ta'sirini o'rganish. Migratsiya sharoitida tilni saqlash yoki yo'qotishning ijtimoiy-madaniy oqibatlarini baholash. O'zbekistonda va jahon tajribasida migratsiya, til va identitet masalalarini solishtirib o'rganish.

## **12-mavzu. Bilingvizm va tarjima**

Bilingvizm haqida tushuncha. Jahon adabiyotida bilingvizm hodisasining ikki ko'rinishi: 1. Bir millat vakilining boshqa tilda ijod qilishi. 2. Bir millat vakilining ikki va undan ortiq tillarda baravar ijod qilishi. Zullisonaynlik. O'zbek adabiyotida bilingvizm. Bilingvizm va tarjima. Bilingvizm hodisasining xarakteriga ko'ra tiplari: 1. Genetik jihatdan umumiy bo'lgan tillarga mansub milliy adabiyotlarning o'zaro aloqasi natijasida yuzaga kelgan zullisonaynlik hodisasi. 2. Genetik jihatdan mutlaqo yaqinligi bo'lmagan tillarda ijod qilish. 3. Geografik omil. Bir asarni ikki tilda yozish, ya'ni uning ma'lum qismlarini bir tilda, boshqalarini ikkinchi tilda yaratish.

### **3-semestr**

#### **II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

##### **II.1. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

###### **1-mavzu. Davrlar va tarjima prinsiplari**

Davrlar va tarjima prinsiplari. Har bir davrning o'z tarjima prinsiplari. Adekvat tarjima. So'zma-so'z tarjima. Erkin tarjima. Ijodiy tarjima. Hijjalab tarjima qilish. Aniq tarjima. Nazmni nasr, nasrni nazm bilan tarjima qilish. Tarjima asosida original asar ijod qilish. Qutb qo'llagan tarjima prinsiplari. Jukovskiyning tarjima prinsiplari. Bryusovning tarjima prinsiplari.

###### **2-mavzu. Jahon tamaddunida tarjimaning o'rnini va roli**

Tamaddun va tarjima. Tarjima va o'zaro aloqa. Tarjimaning insoniyat sivilizatsiyasi taraqqiyotidagi tarixiy ahamiyatini yoritish. Turli davrlarda tarjimaning madaniy almashinuv va ilm-fan taraqqiyotiga qo'shgan hissasini tahlil qilish. Sharq va G'arb uyg'onish davrida tarjima faoliyatining falsafa, tibbiyot, huquq, adabiyot kabi sohalarga ta'sirini o'rganish. Buyuk tarjima maktablari (Bag'dod "Bayt ul-hikma", Toledo tarjimonlar maktabi, O'rta Osiyo mutarjimlari)ning jahon madaniyatidagi o'rnini ko'rsatish.

###### **3-mavzu. Tarjimashunoslik tarixini davrlashtirish**

Tarjima faoliyatining qadimiy davrlardagi shakllanish jarayonini o'rganish. O'rta asrlarda (diniy matnlar. Sharq uyg'onish davri, G'arb uyg'onishi) tarjimaning jamiyatdagi o'rnini va ahamiyatini tahlil qilish. Yevropa va Sharq madaniyatlarida tarjima faoliyatining klassik davrini taqqoslash. XIX–XX asrlarda tarjimashunoslikning mustaqil fan sifatida shakllanishini ko'rsatish. Zamonaviy davrda (XXI asr) tarjima nazariyalarning rivojlanishi va yangi yo'nalishlarni (korpus lingvistika, mashina tarjimasi, multimodal tarjima) tahlil qilish. Tarjimashunoslik tarixini bosqichlarga ajratish mezonlarini ilmiy asosda tushuntirish. O'zbek tarjimashunosligi tarixini umumiy jahon tarjima jarayonlari bilan qiyoslab o'rganish.

###### **4-mavzu. O'zbek tarjima adabiyotining taraqqiyot bosqichlari.**

O'zbek tarjimachilik tarixini davrlashtirishga doir. Tarjima ustalari. Jahon

adabiyoti durdonalari o'zbek tilida. Qadimgi davrlardan boshlab o'zbek adabiyotida tarjimaning ilk ko'rinishlarini aniqlash va tahlil qilish. O'rta asrlarda (IX–XV asrlar) O'rta Osiyo mutarjimlarining ilm-fan va adabiyot rivojiga qo'shgan hissasini o'rganish. Temuriylar davrida hamda jadidchilik harakati davrida tarjima faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini ko'rsatish. O'zbek tarjima maktabining yirik vakillari faoliyatini o'rganish hamda ularning ijodiy tajribasini tahlil qilish.

#### **5-mavzu. Tarjima qonuniyatlari**

Har bir fan umumiy va xususiy qonuniyatlarga asoslanishi. Tarjimashunoslik fanining asosiy qonuniyatlari. Nazariya va amaliyot. Milliy xususiyatlar tarjimasini. Frazologizmlar tarjimasini. Turli uslubdagi matnlar tarjimasining o'ziga xos xususiyatlari. Tarjimada shakl va mazmun birligi. Individual uslub va tarjima. Uzoq va yaqin tillardan tarjima. Tarjima va interpretatsiya Tarjima antinomiylari

#### **6-mavzu. Talqin va tarjima**

Matn va talqin munosabati. Tarjimonning matnning tushunishi va talqin qilishi. Xato talqin va noto'g'ri tarjima. Matnning zohiriy va botiniy ma'nosi. Ma'no qatlamlari va tarjima. So'zning ma'no tovlanishlari. Asliga teskari tarjimalar.

#### **7-mavzu. Tarjimaning ijodiy tabiati**

Tarjima – ijodiy ish. Tarjimaning ijodiy xarakteri. Til vositalarini tanlash jarayoni. Tarjimonning so'z bilan ishlash mahorati. Muayyan olingan matnni bir necha xil tarjima qilish imkoniyatlari. Matn xarakteri va tarjima uslubini.

#### **8-mavzu. Terminologiya va tarjima**

Terminlar tarjimasini qiyinchiliklari. Terminlar tarjimasining amaldagi usullari. Terminlar tarjimasidagi o'zboshimchaliklar va xatolar. Terminlar tarjimasida tasviriy usul va har xilliklar. Terminlar tarjimasidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari.

#### **9-mavzu. Beruniy tarjima va tarjimon haqida**

Abu Rayhon Beruniy asarlaridagi tarjima va tarjimon haqidagi fikrlar. Beruniy tarjima qilgan asarlar haqida. Beruniy – adekvat tarjima tarafdori. Beruniy o'z davri tarjimalarining yutuq va kamchiliklari haqida.

#### **10-mavzu. Tarjima antinomiylari**

Antinomiya haqida tushuncha. Tarjima antinomiylari. Tarjima haqida bir-biriga zid qarashlar. She'riy asarlarning nasriy tarjimalari. Muallif va mutarjim uslubini. Tarjimaning til va uslub xususiyatlari. Asliyat va tarjima nisbatini. Tarjima oldiga qo'yiladigan turli, ba'zida bir-biriga zid qarashlar.

### **11-mavzu. Qayta tarjima muammosi**

Qayta tarjima – muayyan asarning bir tildagi ikkinchi, uchinchi va hokazo tarjimasini. Qayta tarjimaga sabab boʻluvchi omillar: 1) avvalgi tarjimaning til jihatidan eskirganligi; 2) qisqartirib yo oʻzgartirib tarjima qilinganligi yoki saviyasi pastligi; 3) vositachi til orqali tarjima qilingan asarni bevosita asliyatdan oʻgʻirish ehtiyoji; 4) ijodiy bellashuv, musobaqa istagi. Qayta tarjima talablari. Muvaffaqiyatli va muvaffaqiyatsiz qayta tarjimalar.

### **12-mavzu. Tarjimada muallif uslubini qayta yaratish**

Uslub haqida tushuncha. Uslub xillari. Yozuvchi uslub. Personajlar nutqi tarjimasini. Uslub qatlamlari. Soʻzlashuv uslub. Badiiy uslub. Ilmiy uslub. Publisistik uslub. Rasmiy uslub. Muallif uslubini unsurlari. Muallif va mutarjim uslubining bir-biriga mos kelish va mos kelmaslik muammosi doirasida tarjimaning ikki prinsipial masalasi: 1. Oʻzgani taqdim qilish. 2. Oʻzni taqdim qilish. Yoki 1. Tarjima asari – tarjima asari. 2. Tarjima asari – original asar. Uslub muammosining ikki tomoni: 1. Yozuvchi uslubining tarjimon uslubiga taʼsiri. 2. Tarjimon uslubining yozuvchi uslubiga taʼsiri. Uslubiy moslashtirish. Individual uslub va tarjima. Personajlar nutqi tarjimasini. Uslub qatlamlari: Tantanavor uslub. Oʻrta uslub. Jaydari uslub. Qoʻpol uslub. Mumtoz adabiyot asarlari va qadimgi madaniy yodgorliklarni tarjima qilishning uch prinsipi: 1. Funktsional-tarixiy prinsip. 2. Tarixiy uslubiy moslashtirish prinsipi. 3. Modernizatsiya prinsipi.

### **13-mavzu. Badiiy tarjimada soʻz muammosi**

Soʻzning badiiy matndagi koʻp qatlamli maʼnosini tahlil qilish. Soʻzning leksik, uslubiy va madaniy yukini aniqlash. Maʼno koʻchishi (metafora, metonimiya, ramz) jarayonida tarjimon duch keladigan muammolarni yoritish. Soʻzning milliy-madaniy rangini boshqa tilda ifodalash muammosini koʻrsatish. Sinonimlar, ekvivalentlar va mos keluvchi soʻzlarni tanlashda tarjimonning qaror qabul qilish jarayonini tahlil qilish. Badiiy matnda soʻz oʻyini, stilistik figuralarni tarjima qilishdagi qiyinchiliklarni oʻrganish. Oʻzbek va jahon adabiyotidan olingan misollar asosida soʻz muammosi va tarjima strategiyalarini tahlil qilish.

### **14-mavzu. Ilmiy tarjima talablari**

Ilmiy tarjimaning oʻziga xos xususiyatlari. Ilmiy uslub va tarjima. Hozirgi ilmiy asarlar tarjimasining yutuqlari va kamchiliklari. Terminologiya va tarjima. Terminlar tarjimasida qoʻllanadigan usullar. Ilmiy asarlar tarjimasining turlari. Ilmiy asarlar tarjimasidagi murakkablik va qulayliklar.

### **15-mavzu. Publisistik materiallar tarjimasini**

Publisistika haqida tushuncha. Publisistika janrlari. Publisistik uslub belgilari. Ommaviy axborot vositalaridagi materiallarning tarjimasini xususiyatlari. Maqola. Xabar. Ocherk. Feleton. Reportaj. Neologizmlar tarjimasini. Tarjimonning xabardorlik darajasi.

### **16-mavzu. Ijtimoiy-siyosiy matnlar tarjimasini**

Ijtimoiy-siyosiy matn tushunchasi. Ijtimoiy-siyosiy matnlar tarjimasining o'ziga xosliklari. Ijtimoiy-siyosiy terminologiya va tarjima. Ijtimoiy-siyosiy matnlarda boshqa uslub ko'rinishlari. Prezident asarlari tarjimalari. Matbuot meteriallari tahlili.

### **17-mavzu. Ekvivalentlik darajalari**

Ekvivalentlik tushunchasini tarjima nazariyasida ilmiy asosda sharhlash. Turli nazariyotchilar (Komissarov, Nayda, Vinay va Darbelnet, Kade) ta'riflagan ekvivalentlik darajalarini tahlil qilish. So'z darajasida, gap darajasida va matn darajasida ekvivalentlikni ajratib ko'rsatish. Semantik, stilistik va pragmatik ekvivalentlikni farqlash. Amaliy tarjimalarda to'liq, qisman va nol ekvivalentlik holatlarini o'rganish. O'zbek va ingliz tillari materiallari asosida ekvivalentlikning turli darajalarini tahlil qilish. Tarjima jarayonida ekvivalentlikni ta'minlash uchun qo'llanadigan usullar va strategiyalarni ko'rsatish.

### **18-mavzu. Tarjimani ilmiy baholash mezonlari**

Tarjimashunoslik metodologiyasi. Tarjimani ilmiy baholash mezonlari. Tarjima sifatini aniqlashda qiyosiy usul. Kriteriy – mezon. Tarjimashunoslikning ham o'ziga xos tadqiq usuli, asliyatga yondashish va tarjimani baholash usullari. Kompleks yondashuv. Asliyat va tarjimani baholashning turli usullari. Shakl va mazmun birligi. Uslub va tarjima.

### **19-mavzu. Tarjimada filologik tahlil**

Badiiy tarjimada tarjimonning mavqei. Tarjima jarayoni: 1) asl nusxani idrok etish; 2) asl nusxa interpretatsiyasi; 3) asl nusxani qayta ifodalash So'z boyligi va tarjima. Tarjima sifati va tarjimon mavqei Tarjima jarayonining ob'ektiv tomonlari. So'z boyligi va tarjima.

### **20-mavzu. Tarjima san'ati va san'at tarjimasini**

Badiiy matn tarjimasini xususiyatlari. Badiiy tasvir vositalari tarjimasini qiyinchiliklari. Tarjimada kompensatsiya usuli. Tarjimon mahorati masalasi. Tarjimonning so'z boyligi. Tilning ishlanganlik darajasi. Shakl va mazmun tanosubi. Vazn, qofiya, radif, badiiy san'atlar va tarjima muammolari.

### **21-mavzu. Tarjimada ruhiy yaqinlik va uslubiy mushtaraklik omili**

Tarjimaning psixologik omillari. Ruhan yaqin muallif asarlari tarjimasini muvaffaqiyatlari. Zulfiyaning A.S.Pushkin she'rlaridan amalga oshirgan tarjimalari. Tarjimada uslubiy mushtaraklik omili. E.Vohidovning S.Esenin va M.Svetlov ijodidan qilgan tarjimalari. Shayxzoda va Shekspir.

## **22-mavzu. Personajlar nutqini tarjimada qayta yaratish**

Personaj nutqi haqida tushuncha. Personaj nutqi tarjimasi qiyinchiliklari. Soʻzlashuv uslubi. Jonli nutq. Lugʻatlarda yoʻq soʻzlar. Turli yosh va toifadagi kishilar nutqidagi oʻziga xosliklar. Bolalar nutqi tarjimasi. Erkak va ayol nutqi orasidagi tafovutlar. Gap qurilishi. Sintaksis. Sheva xususiyatlari.

## **23-mavzu. Mumtoz va zamonaviy asarlar tarjimasi**

Mumtoz asarlar tarjimasining oʻziga xosligi. Mumtoz adabiyot asarlari va qadimiy madaniy yodgorliklarni tarjima qilishning 3 usuli: 1. Funktsional-tarixiy usul. 2. Tarixiy-uslubiy moslashtirish usuli. 3. Zamonaviylashtirish usuli. Muallif uslubi va oʻsha davr adabiyotiga xos uslubni saqlab qolish. Atoullah Husayniyning “Badoyi`u-s-sanoyi” (“Aruz vazni va badiiy vositalar haqida”)ning Alibek Rustamov tomonidan amalga oshirilgan eski oʻzbek adabiy tilidagi tarjimasi. Abdusodiq Irisov tomonidan amalga oshirilgan Abu Nasr Forobiyning “Sheʼr kitobi” va “Shoirlar sanʼati qoidalari haqida”, Abu Ali ibn Sinoning “Sheʼr sanʼati” asarlarining zamonaviy tarjimasi.

## **24-mavzu. Oʻzbek tarjimashunos olimlari**

Oʻzbekistonda tarjimashunoslik fani rivojiga qoʻshgan olimlar. Ularning asarlari bilan tanishuv. Ilmiy maktablar. Nazariy qarashlar bilan tanishtiruv. Yetakchi olimlar haqida maʼlumotlar. Jumaniyoz Sharipov. Gʻaybullay Salomov. Najmiddin Komilov.

### **III. Amaliy mashgʻulotlari boʻyicha koʻrsatma va tavsiyalar**

*Amaliy mashgʻulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

1. Fanning oʻrganish obekti va predmeti, maqsadi va vazifalari
2. Tarjimashunoslikning tarixiy ildizlari
3. Tarjimashunoslik fanlarining tasnifi
4. Tarjima tarixi
5. Tarjima nazariyasi
6. Tarjima tanqidi
7. Tarjima antinomialari
8. Tarjima va interpretatsiya
9. Tarjimaning ijodiy tabiati
10. Tarjimaning til muammolari
11. Tarjimaning baʼzi grammatik masalalari
12. Tarjimada milliy xususiyatlarni aks ettirish
13. Individual uslub va tarjima
14. Frazologizmlarni tarjima qilish usullari
15. Badiiy matn va tarjimon mahorati
16. Ilmiy tarjima talablari
17. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar tarjimasi

18. Yaqin tillardan tarjima: qulayliklar va qiyinchiliklar
19. Uzoq tillardan tarjima muammolari
20. Tarjimada an`ana va vorisiylik
21. Tarjimani ilmiy baholash mezonlari
22. Tarjima konsepsiyasi
23. Tarjimada filologik tahlil
24. Tarjimada mazmun va shakl birligini qayta yaratish

#### **IV. Mustaqil ta`lim va mustaqil ishlar**

Talabalarni mustaqil ta`lim shaklini tashkil etishga qo`yilgan talablar O`zbekiston Respublikasi oliy ta`lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 29-apreldagi 136-sonli “Oliy ta`lim muassasalari talabalari mustaqil ta`limini tashkil etish bo`yicha namunaviy tartibni tasdiqlash to`g`risida”gi buyrug`i asosida ishlab chiqilgan.

Mustaqil ta`limni baholash semestr davomida berilgan topshiriq asosida bajarilgan ishlarni HEMISga ilova qilish, shuningdek, qisman joriy, oraliq va yakuniy test va savollarga javob berish asosida oshiriladi.

“Tarjimashunoslik” fanidan mustaqil ta`lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. G`aybulla Salomov – o`zbek tarjimashunosligining asoschisi.
2. Muayyan asar tarjimasiga taqriz yozish.
3. Xorazm tarjima maktabi
4. Ogahiyning tarjimonlik mahorati
5. Jumaniyoz Sharipovning tarjimonlik va tarjimashunoslik faoliyati
6. Tarjimada kompensatsiya
7. Tarjimada adaptatsiya va uning ko`rinishlari
8. Antonimik tarjimalar tahlili
9. Badiiy matn tarjimasining o`ziga xos xususiyatlari
10. Tarjimaning ijodiy xarakteri
11. Tarjima asarlari tahliliga bag`ishlab ilmiy maqola yozish.
12. Personajlar nutqining qapya yaratish qiyinchiliklari
13. Terminlar tarjimasining o`ziga xos xususiyatlari
14. Badiiy san`atlarni tarjimada qayta yaratish
15. Soxta ekvivalent va tarjima
16. Asliyatdan oshirib tarjima qilish mumkinmi?
17. Tarjimada aniqlik va erkinlik nisbati
18. Qayta tarjimaning asosiy talablari
19. Milliy koloritning tarkibiy qismlari
20. Frazeologizmlar tarjimasida qo`llaniladigan asosiy usullar
21. Diniy asarlar tarjimasini mushkulotlari
22. Tarjimaning lisoniy va g`ayrilisoniy omillari.
23. Tarjimaning janriy muammolari
24. Bilimgvizm va tarjima

25. Davrlar va tarjima prinsiplari
26. Mumtoz va zamonaviy asarlar tarjimasini
27. Jahon tamaddunida tarjimaning o'рни va roli
38. O'zbek tarjima adabiyotining taraqqiyot bosqichlari

Talaba mustaqil ishni tayyorlashda fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda, quyidagi shakllarda topshiradi:

- darsliklar va o'quv qo'llanmalarining mavzularini o'rganib chiqish;
- maxsus ilmiy adabiyot asosida mavzular ustida ishlash;
- o'quv-ilmiy-tadqiqot faoliyat bilan bog'liq mavzularni chuqur o'rganish;
- ta'lim olishning faol va muammoli usullari qo'llangan o'quv mashqlarni bajarish;
- taqdim etilayotgan mavzu bo'yicha referat, esse, maqola va testlar tayyorlash;
- mavzu bo'yicha slayd-prezentatsiyani tayyorlash;
- mavzular bo'yicha adabiyotlar sharhi.

**V. "Tarjimashunoslik" fanidan kurs ishlarining namunaviy mavzulari:**

1. Tarjima nazariyasi haqida turlicha qarashlar.
2. Beruniy tarjima masalalari.
3. O'zbekistonda tarjimashunoslikning fan sifatida shakllanishi.
4. Tarjima maktablari.
5. Tarjima qonuniyatlari.
6. Hozirgi tarjima jarayoni tahlili.
7. Tarjima amaliyotidagi turli tajribalar haqida.
8. Tarjima qusurlari.
9. Tarjima prinsiplari.
10. Tilning leksik-ifodaviy qatlamlari va tarjima.
11. Erkalash va kichraytirish qo'shimchalari tarjimasini.
12. Milliylik va tarjima.
13. Tarjimada muallif uslubini aks ettirish.
14. Maqol, metal va idiomalar tarjimasini.
15. Badiiy san'atlar tarjimasini murakkabliklari.
16. Terminlar tarjimasining uch usuli.
17. Publisistik matn va tarjima.
18. Tarjima uchun asar tanlash.

*Mavzular talabalar sonidan kelib chiqqan holda*

*\* Izoh: Mustaqil ta'lim va kurs ishi mavzulari fan doirasida o'zgarishi mumkin.*

3. Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. Magistrant:
  - taraqqiy etgan mamlakatlarda an'anaviy va yangi media taraqqiyoti bosqichlari to'g'risida tasavvurga ega bo'lishi;

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• axborot uzatishning pochta, televidenie, radio, davriy nashrlar kabi an'anaviy kanallaridan foydalanishni bilishi va ulardan foydalana olishi;</li> </ul> <p>yangi media industriyasining bozor iqtisodiyotining reklama va marketing, televidenie va radio kabi ko'pgina tarmoqlari bilan hamkorligida ishlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</p>
4.	<p style="text-align: center;"><b>VI. Fan o'qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar)</b></p> <p><i>"Tarjimashunoslik" fanini o'zlashtirish natijasida talaba:</i></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– tillarning shakllanishi va rivojlanishi, til hodisalari;</li> <li>– tilning rivojlanish qonuniyatlari, tilning vazifalari;</li> <li>– tilshunoslik bo'limlari, til sathlari;</li> <li>– tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari, tilshunoslik tarixi, tilshunoslikning tadqiqot metodlari;</li> <li>– til universaliyasi, metatil;</li> <li>– ilmiy terminlar tizimi, lingvistikaga tegishli <b>tasavvurga ega bo'lishi</b>;</li> <li>– tilshunoslikning nazariy masalalarini;</li> <li>– tillarning geneologik va morfologik tasnifini;</li> <li>– lingvistika turlarini, pragmalingvistika va psixolingvistika yo'nalishlarini;</li> <li>– tilshunoslik maktablari, sinxron va diaxron tadqiqot metodlarini ilmiy atamalar tizimi, lingvistikaga tegishli tushunchalarni <b>bilishi va ulardan foydalana olishi</b>;</li> </ul> <p>bular bilan bir qatorda bakalavr:</p> <ul style="list-style-type: none"> <li>– til hodisalariga ilmiy yondashish;</li> <li>– til hodisalarini turli aspektda ko'ra olish;</li> <li>– tilshunoslikning boshqa fanlar bilan aloqasini tahlil qila olish <b>ko'nikmasiga ega bo'lishi</b>;</li> <li>– tillarni geneologik va morfologik jihatdan tasniflay olish;</li> <li>– tilshunoslikning zamonaviy yo'nalishlari tadqiq qilish;</li> <li>– tilshunoslik maktablarini ajrata olish;</li> <li>– tilshunoslik tadqiqot metodlarini amaliy jihatdan nazariy bilimga bog'lay olish <b>malakalariga ega bo'lishi kerak.</b></li> </ul>
5.	<p style="text-align: center;"><b>VII. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:</b></p> <ul style="list-style-type: none"> <li>• videomahsulotlardan foydalanish;</li> <li>• grammatik-tarjima metodi;</li> <li>• audio-lingval metod;</li> <li>• audiovizual metod;</li> <li>• namoyish qilish (demonstratsiya) metodi;</li> <li>• interfaol keys-stadilar;</li> <li>• rolli o'yinlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar);</li> <li>• guruhlarda ishlash;</li> <li>• individual loyihalar;</li> <li>• jamoaviy loyihalar;</li> <li>• organayzer (Klaster, Baliq skeleti, Ajurli arra, FSMU, Bumerang, Inset, BBXB)lar;</li> </ul>

	<ul style="list-style-type: none"> <li>• infografikalar yaratish va boshqalar.</li> </ul>
6.	<p style="text-align: center;"><b>VIII. Kreditlarni olish uchun talablar:</b></p> <p>Joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy iazorat bo'yicha yozma ishni muvaffaqiyatli topshirish.</p>
7.	<p style="text-align: center;"><b>Asosiy adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Hamidov X. Matn tarjiması va tahriri. – Toshkent. TDSHu: 2020.</li> <li>2. Hamidov X. O'zbek qissa va romanlari turk tilida. – Toshkent: «EFFECT-D» nashriyoti: 2022.</li> <li>3. Hamidov X. Abdulla Qahhor uslubini tarjimada qayta yaratish masalalari: monografiya. Toshkent: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2024.</li> <li>4. Hamidov X. Turk tili frazeologiyasi va o'z-bekcha-turk-cha tarjima masalalari. – Toshkent: TDSHu, 2024</li> <li>5. Sharipov R. Badiiy tarjima. – Toshkent, TDSHu: 2022.</li> <li>6. Очилов Э. Таржимашуносликнинг назарий масалалари (Ўқув қўлланма). – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2022.</li> <li>7. Очилов Э., Ходжаева Н. Таржима назарияси (Ўқув қўлланма). – Toshkent: “Innovatsiya-Ziyo”, 2022.</li> </ol> <p style="text-align: center;"><b>Qo'shimcha adabiyotlar</b></p> <ol style="list-style-type: none"> <li>1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. –Toshkent: O'zbekiston, 2024.</li> <li>2. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekistonda taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz. 6-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 2023.</li> <li>3. Mirziyoyev Sh. M. Yangi O'zbekistonda erkin va faravon yashaylik. 5-jild. –Toshkent: O'zbekiston, 2023.</li> <li>4. Очилов Э. Таржима назарияси ва амалиёти (Ўқув қўлланма). – Toshkent: Шарқшунослик институти, 2012.</li> <li>3. Очилов Э. Таржимашунослик терминларининг изоҳли луғати. – Toshkent: Шарқшунослик институти, 2014.</li> <li>4. Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari. O'quv qo'llanma. – Toshkent: TDSHi, 2014.</li> <li>5. Чернов Г.В. Синхрон таржима назарияси ва амалиёти (рус тилидан Х.Ҳамидов таржима килиб нашрга тайёрлаган). – Т.: ТошДШИ, 2019.</li> <li>6. Hamidov X., Alimbekov A., Sharq xalqlari adabiyotidan tarjimalar. – Toshkent, 2013.</li> <li>7. Ходжаева Н. Hindiycha-o'zbekcha, o'zbekcha-hindiycha iboralar lug'ati. – Toshkent, 2015.</li> <li>7. Ҳамидов Х.Х. Ўзбекчадан туркчага насрий таржима муаммолари. – Toshkent: ТошДШИ. 2014. – 148 б.</li> <li>8. Hamidov X.X. Maqol va idiomalar tarjiması muammolari. –Toshkent: ToshDShI, 2017.</li> </ol>

	<p style="text-align: center;"><b>Scopus maqolalari</b></p> <p>1. Bisiada, M. (2018). Translation and editing: a study of editorial treatment of nominalisations in draft translations. <i>Perspectives</i>, 26(1), 24-38. <a href="https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/0907676X.2017.1290121">https://www.tandfonline.com/doi/abs/10.1080/0907676X.2017.1290121</a></p> <p>2. Declercq, C. (2023). Editing in translation technology. In <i>Routledge encyclopedia of translation technology</i> (pp. 551-564). Routledge. <a href="https://www.taylorfrancis.com/chapters/edit/10.4324/9781003168348-35/editing-translation-technology-christophe-declercq">https://www.taylorfrancis.com/chapters/edit/10.4324/9781003168348-35/editing-translation-technology-christophe-declercq</a></p> <p>3. Lacunas in Chinese and Uzbek Languages and Methods of Their Detection. <i>International Journal of Innovative Technology and Exploring Engineering (IJTEE)</i>, ISSN: 2278-3075, Volume-8 Issue-12, October 2019.</p> <p style="text-align: center;"><b>Axborot manbalar</b></p> <p>1. <a href="http://www.ziyo.net">http://www.ziyo.net</a>  2. <a href="https://www.jstor.org/">https://www.jstor.org/</a>  3. <a href="https://tadqiqot.uz">https://tadqiqot.uz</a></p>
8.	<p>Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi tomonidan ishlab chiqilgan va 2025-yil "<u>18</u>" "<u>06</u>" dagi <u>24</u>-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.</p> <p>Fan dasturi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 2025-yil "<u>28</u>" "<u>06</u>" dagi <u>1</u>-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan.</p>
9.	<p><b>Fan/modul uchun ma'sullar:</b></p> <p><b>Hamidov X.X.</b> – TDSHU Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi professori, f.f.d.  <b>Ochilov E.Z.</b> – TDSHU Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi dotsenti, f.f.n.  <b>Nazrullayeva G.K.</b> - TDSHU Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi katta o'qituvchisi, PhD.</p>
10.	<p><b>Taqrizchilar:</b></p> <p>1. <b>Mustafayeva S.T.</b> – TDSHU Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi dotsenti, DSc  2. <b>Ismatullayeva N.R.</b> – TDSHU Tarjimashunoslik, tilshunoslik va xalqaro jurnalistika oliy maktabi dotsenti, PhD.</p>